

Usmonova Zulfia Ilhomovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSALARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMRADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida interfaol metodlardan foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, ta'lim-tarbiya, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, keys-stydi, assisment, 6x6metodi.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВЕННОСТИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация. В данной статье освещаются важные аспекты использования интерактивных методов на уроках элементарных естественных наук. На примерах доказана необходимость учитывать психологические и возрастные особенности учащихся при использовании дидактических средств.

Ключевые слова: интерактивные методы, образование, начальное образование, естественные науки, практический пример, помощь, метод 6x6.

INCREASING LESSON EFFECTIVENESS BY USING INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY CLASS NATURAL SCIENCE LESSONS

Annotation. This article highlights the important aspects of using interactive methods in elementary science classes. The need to take into account the psychological and age characteristics of students when using didactic tools has been proven on the basis of examples.

Key words: interactive methods, education, primary education, natural sciences, case study, assistance, 6x6 method.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda va har tomonlama tarbiyalashda tabiiy fanlar darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish katta o'rin egallaydi. Tabiiy fanlarni o'rganish kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar olishga imkon beradi. Shuning uchun ham pedagoglar tabiiy fanlar darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari kerak. Tabiiy fanlar darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etishni yaxshi bilish boshlang'ich maktab o'qituvchilariga bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o'qituvchini nazariya bilan qurollantirib, o'qitish mahoratini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun eng muhimi tarbiyalovchi ta'lim sistemasini tushinib olish, tabiiy fanlar darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish asoslarini, uning uchun xos bo'lgan shakl, metod va uslublarini, o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib olishdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar hamda axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "6x6x6", "Bahsmunozara", "Rolli o'yin", "FSMU", "Kichik guruhlarda ishlash", "Zigzag" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda [1;20]. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil

ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjihatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda: o'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi, o'quv reja, dastur, ta'lim mazmuni, darslik, standart, me'yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o'quv jarayonida o'quvchining ehtiyoji, xoxish - istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o'tayotganini bilmay qoladi. O'quv - biluv jarayonida o'quvchining shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko'taradi. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'quvchi - o'qituvchi - o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi[2;25].

Keys-stadi metodi. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Keys-stadi ta'lim metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash - hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag'ishlangan keyslardan foydalanish ta'lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi. Keysni ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o'zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta'lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo'llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi. Keys-stadi - ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim metodidir.

Assisment metodi - "Assesment" inglizcha "assessment" so'zidan olingan bo'lib, "baho", "baholash" ma'nolarini bildiradi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholaydi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlaydi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish[1;30]. "Assesment" metodi tabiiy fanlar mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash takrorlash mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu metodni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo'llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

«6 x 6» metodi. «6 x 6» metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafari ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammoni muvofiq qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muvofiq qiladilar. «6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat: - guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishiga undaydi; - ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi; - guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi; - ilgari surilayotgan bir hecha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, har bir o'quvchi qisqa vaqt (15-20 minut) davomida ham munozara qatnashchisi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu metod

qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo) ni muhokama qilish imkoniyati mavjud. «6 x 6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi.
2. 6 ta varaqqa turli xil 6 ta topshiriq yozib chiqiladi. Varaqlarga I dan VI gacha rim raqami yozib qo'yiladi. Bu varaqlar 6 ta stolning har biriga qo'yib chiqiladi.
3. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutadi. Har bir o'quvchiga 1 dan 36 gacha raqamlangan varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Bu varaqlarda rim raqami bilan stol raqami ko'rsatilgan bo'ladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchadagi rim raqami bilan ko'rsatilgan stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.
4. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi stol ustiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish uchun ma'lum vaqtni (5-10 minut) belgilaydi, munozara jarayoni boshlanganini e'lon qiladi.
5. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.
6. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt (5-10 minut) ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda qabul qilingan xulosalarni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. O'qituvchiga esa ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. –Toshkent:2001.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Fan, 2005.
3. Usmonova, Z. (2025). Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(4).
4. Ilhomovna, U. Z. (2023). USE OF INTERACTIVE METHODS IN FORMING CALCULATION SKILLS OF 3RD CLASS STUDENTS BASED ON THE REQUIREMENTS OF THE NATIONAL PROGRAM. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(10), 61-65.
5. Usmonova, Z. I. (2022). Improving the Methodology for Forming Computational Skills in Primary School Students. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 576-579.
6. Muxamedovich, K. F., & Ilxomovna, U. Z. (2023). METHODS AND TOOLS FOR FORMING CALCULATION SKILLS IN STUDENTS THROUGH INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS EDUCATION
7. Muxamedovich, K. F., & Ilxomovna, U. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIDA HISOBLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDANALISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 47-51).
8. Saidova, M., Usmonova, Z., Jo'rayeva, D., & Nuritdinova, D. (2024). Improving the methodology of using information technologies in elementary mathematics classes. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 05033). EDP Sciences.
9. ILXOMOVNA, U. Z. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O'RGATILADIGAN OG 'ZAKI HISOB USULLARI, ULARNING NAZARIY-METODIK JIHATLARI. *KASB-HUNAR TA'LIMI MUHADDIRI*, 107.
10. Usmonova, Z., & Jabborova, A. (2024). TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT IN MATHEMATICS AND SCIENCES. *Modern Science and Research*, 3(11), 596-600.